

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI



TURKIY FILOLOGIYAGA KIRISH
FANIDAN
O'QUV DASTURI

Bilim sohasi:	100000 – Ta'lim
Ta'lim sohasi:	110000 – Ta'lim
Ta'lim yo'nalishi:	70111401 – O'zbek tili va adabiyoti

Fan/modul kodi TTTG1305	O'quv yili 2024-2025	Semestr 3	Kreditlar 5	
Fan/modul turi Tanlov fan	Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 4	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
		Turkiy filologiyaga kirish	60	90
2.	<p>I. Fanning mazmuni</p> <p>Fanni o'qitishdan maqsad - "Turkiy filologiyaga kirish" fanini o'qitishdan maqsad: turkiy tillar, jumladan, o'zbek tilining bir necha yuz yillik shakllanish va taraqqiy etish dinamikasini kuzatish, davrlar osha yetib kelgan qo'lyozma manbalar va ularning mavjud nashrlaridagi ashyoviy materiallarga suyangan holda fonetik-fonologik, morfem-morfologik, leksik-semantik hamda sintaktik sahlarda sodir bo'lgan o'zgarishlar va ularni yozaga keltirgan lingvistik va ekstralingvistik omillar xususida bilim berishdir.</p> <p>Fanning vazifasi - talabalarda "Turkiy filologiyaga kirish" fani fani buyicha magistr til va tafakkur, tilning ijtimoiy mohiyati, o'zbek tili va o'zbek xalqining shakllanishi, tarixiy taraqqiyoti, o'zbek tilining ichki qurilishi, undagi tarixiy o'zgarishlar, o'zbek tilshunosligi shakllanishi va taraqqiyotiga hissa qo'shgan olimlarning tadqiqotlari, ilmiy-nazariy qarashlari haqida tasavvurga ega bo'lishi ko'zda tutilgan.</p> <p style="text-align: center;">II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</p> <p style="text-align: center;">II.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</p> <p>1-mavzu. Turkiy xalqlar tillari va adabiyotini o'rganishning ilk davri.</p> <p>Qadimgi turkiy tilning davrlari; eramizgacha, eramizning I-V va VI-X asrlardagi ijtimoiy-madaniy hayot. Bu davr haqidagi qarashlar. Oltin tillari oilasi haqida tushuncha. Turk va mo'g'ul tillarining alohida ajralib chiqishi. Turkiy tillar tarixida xun davri. Qadimgi turk davrining vujudga kelishi.</p> <p>Qadimgi turkiy yozuvlar. Turkiy-run bitiklari hamda uyg'ur yozuvi yodnomalari.</p> <p>2-mavzu. Xalifalik davrida tilshunoslik.</p> <p>Xalifalik xududida yashagan barcha din va fan axli, qaysi xalqqa mansub bo'lishidan qat'i nazar, o'z asarlarini arab tilida yozdilar. SHuning uchun ham dunyoga arab madaniyati deb shuhrat qozongan madaniyatning shakllanishi pa ravnaq topishida arablardan tashqari arab bo'lmagan xalq vakillarining ham xizmatlari kattadir. Ana shular orasida Ferobiy, Beruniy, Ibn Sino kabi ko'plab ajdodlarimiz bor.</p> <p>3-mavzu Qoraxoniylar davrida tilshunoslik.</p> <p>Turkiy xalqlar tarixida qoraxoniylar davri deb yuritiladigan X-XII asrlar alohida ajralib turadi. Tarixiy manbalar shunga guvohlik beradiki, X asrlarga</p>			

kelib xalifalik birmuncha kuchsizlashdi. Markaziy Osiyoda qarluq qabila ittifoqi kuchaya boshladi va yettisuva qoraxoniylar dinastiyasi yoki Ilikxon dinastiyasi vujudga keladi. Qoraxoniylar sharda uyg'ur, g'arbda esa turk-eron madaniyatini o'zida uyg'unlashtirib, Markaziy Osiyoning eng madaniy va eng yirik turk davlatchiligiga asos soldilar. YUsof Xos Xojibning «Qutadg'u bilik» epopeyasi va turkiy tili o'rganishni xohlovchi arablarning ehtiyojini qondirmoq uchun Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'atit turk» asari maydonga keladi.

4-mavzu. Mahmud Koshg'ariy - qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning asoschisi.

Tilshunoslik tarixida Mahmud Koshg'ariy salmoqdi o'rin egallaydi. U tilshunoslikning juda ko'p sohalari bo'yicha qalam tebratdi. Qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning otasi, fonetist-fonolog, leksikolog, leksikograf, lingvogeograf, turkiy tillar sarf va nahv ilmining asoschisi sanaladi.

5-mavzu. Mahmud Zamahshariyning lingvistik qarashlari.

Arab tilshunosligining rivojida xalqlar olimlarining hissasi katta. Ana shunday olimlardan yana biri xorazmlik Mahmud Zamahshariy. U tilshunoslik, adabiyot, jug'rofiyo, tafsir, hadis, fiqh va ilmi alqiroatga oid ellikdan ortiq asarlar yaratdi. Ularning kipi bizgacha yetib kelgan. Mahmud Zamahshariy arab tili grammatikasiga doyr «Al-mufassal» nomi bilan mashhur bulgan «Al-mufassal fi san'at il-i'rob» («Fleksiya san'ati haqida mufassalkitob»), «Al-muhojat bil-masoiil an-naxviya av al-axajiy an-nahviya» («Grammatik masalalarga oid jumbok'aro»), «Al-unmuzaj fi-n-nahvi» («Grammatik namunalar haqida»), «Samiym ul-arabiya» («Arab tilining negizi»), «Al-mufrad va-l-muallif fi-n-naqvi» («Grammatikadabirlik va kuplik»), «Al-mufrad va-l-murakkab fi-l-arabiya» («Arab tilida birlik va kuplik»), «Al-amaliy fi-n-nahvi» («Grammatik qoidalarda orfografiya»), «Diyvon ul-tamoyili» («Assimilyatsiya haqida devono») kabi qator asarlar yaratdi.

6-mavzu. Mo'g'ullar davrida tilshunoslik

Bu davrda o'zbek, uyg'ur adabiy tillari mustaqil tillar sifatida bir-biridan ajraldi. Uzbek tilida bir qator badiiy asarlar maydonga keldi. A. K. Borovkav, A. M. Shcherbak singari turkolog olimlarning e'tirof etishicha, «Tafsir», «Muhabbatnoma», «Qissai Rabg'uziy» kabi yodgorliklar o'zbek tilining ilkyodgorliklari sanaladi.

SHuningdek, norma'lum muallif tomonidan yozilgan «Al-tuhfatuz zakiyatu fillug'atit turkiya» asari ham shudavrga mansubdir.

7-mavzu. Eski o'zbek tili bo'yicha yaratilgan filologik asarlar.

Eski o'zbek adabiy tili taraqqiyotida Durbek, Atoiy, Gadoiy, Sakkokiy va Lutfylarning o'rni. Ular ijodida eski turkiy til unsurlari bilan birga jonli til xususiyatlarining joy olganligi, davrga xos adabiy normalarning vujudga kela boshlashi.

8-mavzu. Temuriylar davrida tilshunoslik

Amir Temur va Temuriylar turk tilida badiiy asarlar yaratishga alohida ahamiyat berdilar. SHuning uchun temuriylar saroyida bir qancha turkiyzabon

adiblar izzatikromga sazovor bo'ldilar. Xususan, Mavlono Lutfiy SHohruh Mirzo saroyidaxizmat qilib, o'z zamonasining «Malik ul-Kaloma» giga aylandi. Sakkoki Mirzo Ulug'bek saroyida ijod qildi va Ulug'bekning izzatikromiga sazovor bo'ldi. Olim-fozillarga katta hurmat bilan qaraganligi, ilm-arifata ahamiyat berganliklari tufayli temuriylar uz oilalarida bola tarbiyasiga, ularning ilm olishlariga ham e'tiborni kuchaytirdilar. Buning natijasida temuriylardan bir qator olimlar, shoirlar yetishib chikdi. Mirzo Ulug'bek, mashhur «Taashshuqnomæ» asarining muallifi Sayid Ahmad ibn Mironshoh, Husayn Boyqaro, Zahiriddin Muhammad Bobur ana shunday temuriyzodalardandir. Temuriylar saroyida o'sib-ulg'aygan Alisher Navoiy Amir Temur niyatini to'la amalga oshirishga bel bog'lab, o'zbek adabiy tilining yalovhardori bo'lib maydonga chikdi

9-mavzu. Alisher Navoiy – kontrastiv lingvistikaning asoschisi.

Alisher Navoiy asarlari tilining muhim xususiyatlari va unda o'zbek tili leksik, morfologik va sintaktik normalarining belgilinishi. Alisher Navoiy asarlarida qo'llangan «turkiy», «turkcha» atamalarining ham o'zbek, ham umumturkiy ma'nolari.

Alisher Navoiyning turkiy va turkiy bo'lmagan tillar boyligidan foydalanish tamoyillari. Alisher Navoiyning nasriy va nazmiy asarlari tilining eng muhim xususiyatlari. Poetik asarlarida norma tushunchasining nisbiy ekanligi. Alisher Navoiy asarlarning janriga ko'ra uslubiy o'ziga xosligi, badiiy uslub, insho uslubi va ilmiy uslub aks etgan asarlari tahlili.

10-mavzu. Hozirgi turkiy filologiya.

Turkologiyada qo'shma gaplarga doyr yaratilgan eng saraasarlarni chuqur tahlil etgan va ularga tanqidiy yondashgan holda G. Abdurraqmonov «Qo'shma gapo (T., 1957), «Qushmaran sintasisi asoslari» (T., 1958), «Qushma ran sintaksisi» (T., 1964), M. Asqarova «Hozirgi zamon uzbek tilida qo'shma gaplar» (T., 1960), «Uzbek tilida ergashish formalari va ergash gaplar» (T., 1966) singari kitoblarini nashr etib, uzbek tili qo'shma ran sintaksisining ilmiy asoslari ni yaratib berdilar.

II. Anally mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asari tahlili.
2. Mahmud Zamahshariyning arab grammatikasini yaratishdagi o'rni.
3. Alisher Navoiyning nutq odobi, so'z qudrati haqidagi qarashlari, "Muhokamatul lug'atayn" asari tahlili.
4. Zahiriddin Boburning tilshunoslikka oid ishlari
5. Abulg'oziy Bahodirxonning lingvistik qarashlari.
6. O'zbek tilshunosligida lug'atchilik an'analari.
7. A. Fitratning "Sarf" va "Nahv" asarlari tahlili
8. "Chig'atoy gurungi" tashkilotining o'zbek adabiy tili uchun kurashi.
9. Ashurafi Zahiriyning o'zbek adabiy tilining grammatik me'yorlari to'g'risidagi qarashlari.
10. Hozirgi o'zbek tilshunosligi

IV. Laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

1. O'zbek tilining fonetik tizimi sohasidagi ishlar tahlili.
2. O'zbek tilining leksik tizimi sohasidagi ishlar tahlili.
3. O'zbek tilshunosligida morfologiya, morfemika, so'z yasalishi bo'yicha qilingan tadqiqotlar tahlili.
4. O'zbek tilshunosligida sintaksis bo'yicha qilingan tadqiqotlar tahlili.
5. Sh.Rahmatullayevning o'zbek tilshunosligi taraqqiyotiga qo'shgan hissasi
6. Istiqlol davrida o'zbek tili leksikologiyasi va terminologiyasining rivojlanishi
7. O'zbek ilmiy tilshunosligining shakllanishi va yutuqlari.
8. O'zbek an'anaviy tilshunoslik maktablari, uning namoyandalari.
9. O'zbek tilshunosligining nazariy bosqichi.
10. Ilmiy tilshunoslikning shakllanishi va rivojlanishi

V. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

Talaba mustaqil ta'limni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlari hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi.

- darslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha fan boblari hamda mavzularini o'rganish:

- tarqatma materiallar ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;
- maxsus adabiyotlar bo'yicha mavzular ustida ishlash;

- talabaning o'quv, ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan fanlar bo'limlari va mavzularini chuqur o'rganish;

- fiol va muammoli o'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlari;

- masofaviy ta'lim.

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Abu Nasr Forobiy (873-950), Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sinoning lingvistik qarashlarini o'rganish.
2. Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit turk"ning o'zbek tilshunosligi tarixiy taraqqiyotidagi o'rini o'rganish.
3. Mahmud Zamahshariyning "Muqaddimat-ul adab" asari, "At tuhfatu zaxiyatu fi- lug'atit turkiya" - "Turkiy tillar haqida noyob tuhfa" ("At-tuhfa") asari tahlil qilish
4. Navoiy falsafasida umumiylik-xususiylik, mohiyat-hodisa munosabatlari; uning imkoniyat va voqelikning til va nutqqa tegishliligi haqidagi qarashlarini o'rganish.
5. Zahiriddin Muhammad Boburning Xumoyunga yozgan maktubida nutqqa oid qarashlarining ifodalanishi. "Boburnoma" asarining til xususiyatlari yuzasidan ilmiy maqolalar tayyorlash
6. O'rtalardav mavzuyiy lug'atlarning yaratilishini o'rganish.
7. Abulg'oziy Bahodirxonning "Shajarai tarokima" (1658-1661) va

	<p>“Shajarai turk” (1663-1664 y.) asarlarini o‘rganish</p> <p>8. XIX asr oxirida va XX asr boshlarida yaratilgan o‘zbek tili grammatikasi bo‘yicha dastlabki asarlarni tahlil qilish.</p>
3.	<p>VI. Ta‘lim natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)</p> <p>Talaba bilishi kerak:</p> <ul style="list-style-type: none"> • qadimiy sivilizatsiyalarining rivojlanishi, eng qadimgi tarixni davrlashtirish masalalari, kishilik jamiyatining paydo bo‘lishi, odamzodning dastlabki mehnat qurollari, mashg‘ulotlari, makonlari, uning qadimgi va o‘rta asrlar davri tarixi hamda shu davrlar ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayoti <i>xaqida tasavvurga ega bo‘lishi</i>; (bilim) • talaba mustaqil ish, amaliy mashg‘ulot va arxeologik amaliyot jarayonida arxeologiya yodgorliklarini tashqi ko‘rinishiga qarab, ularning turlari va tiplarini <i>bilishi va ulardan foydalana olishi</i>; (ko‘nikma) • har bir davrning o‘ziga xos yodgorliklarini turini va ularning tabiiy-geografik joylashish o‘rinlarini, ulardan qanday qilib mavzuga xos tarixiy informatsiyalar olish va o‘z pedagogik faoliyatida ulardan samarali foydalana olish <i>malakalariga ega bo‘lishi kerak</i>.
4.	<p>VII. Ta‘lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • ma‘ruza; • keys-stadi; • individual loyihalar; • taqdimotlar qilish; • guruhlarda ishlash; • jamoa bo‘lib ishlash va himoya qilish; • “BBB”, “Tarozi”, “SWOT-tahlil”, “Sinkveyn”, “FSMU”, o‘yin, musobaqa.
5.	<p>VIII. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to‘la o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayonlar va tushunchalar haqida mustaqil mushohada yuritish, joriy va oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat ishini topshirish.</p>
6.	<p>IX. Asosiy adabiyotlar:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Ne‘matov H.F. O‘zbek tilining tarixiy fonetikasi. –Toshkent, 1992. 2. Aliev A., Sodiqov Q. O‘zbek adabiy tili tarixidan. –Toshkent, «O‘qituvchi», 1994. 3. Tursunov U., O‘rinboyev B., Aliyev A. O‘zbek adabiy tili tarixi. –Toshkent, «O‘qituvchi», 1995. 4. To‘ychiboyev B. O‘zbek tilining taraqqiyot bosqichlari. – T., O‘qituvchi. 1996. 5. Nurmonov A., Mahmudov N. O‘zbek tilshunosligi tarixi. T., Kamolot-Qatortol, 2000. 1-kitob. 6. Ashirboyev S., Azimov I. O‘zbek tilining tarixiy grammatikasi. –Toshkent,

	<p>2002.</p> <ol style="list-style-type: none"> 7. Nurmonov A. O‘zbek tilshunosligi tarixi. T., O‘zbekiston, 2002. 2-kitob. 8. O‘rinboyev B., Qurbonov T. O‘zbek tilshunosligi tarixi. O‘quv qo‘llanma, Samarqand, 2006. 9. Tojiyev Yo. O‘zbek tilshunosligi tarixi. Ma‘ruzalar matni, T., Universitet, 2000. <p>Qo‘shimcha adabiyotlar:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Uzoqov H. O‘zbek tilshunoslari. T., O‘qituvchi, 1972. 2. Muxtorov J., Saraqulov U. O‘zbek adabiy tili tarixi. –Toshkent: O‘qituvchi, 1995. 3. XIII-XIV asrlar turkiy adabiy yodgorliklar tili. Morfologiya. –T., 1986. 4. XV-XIX asrlar o‘zbek tili morfologiyasi. –T., 1990. 5. Abdurasulov YO. Turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasi. –Toshkent, 2009. 6. Dadaboyev H., Xolmanova Z. Turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasi. –Toshkent, 2015. 7. Rafiyev A. Turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasi. –Toshkent, 2004. 8. Mahmud Koshg‘ariy. Devonu lug‘otit-turk. I – 3-tomlar. – T., O‘zFA. 1960-1963. 9. Ahmedov B. O‘zbek ulusi. –Toshkent, 1992. 10. Dadaboev X.A. Obshchestvenno-politicheskaya i sotsialno-ekonomicheskaya terminologiya v tyurkoyazichnix pamyatnix XI-XIV v. Avtoref. D.D.-Tashkent, 1992. 11. Rahmonov V. O‘zbek klassik adabiyoti asarlari uchun qisqacha lug‘at. –Toshkent, 1993. 12. To‘ychiboev B. O‘zbek tili tarixining davrlari. –Toshkent, 1996. 13. Uzbekskoye sovetskoye yazyakoznaniye. T., Fan, 1986. 14. Hasanov H. Mahmud Qoshg‘ariy. T., Fan, 1963. 15. Fozilov E. Sifarning mashhur filologlari. T., Fan, 1971. 16. Jabborov H. Buyuk tilshunoslar. Qarshi, Nasaf, 2003. 17. A.G‘ulomovning ilmiy merosi. T., 1,2,3,4 kitoblar. 2003, 2004, 2006, 2007. y-y. <p>Axborot manbalari</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. www.navoiv.uz. 2. www.pedagog.uz. 3. www.ziyouet.uz. 4. www.edu.uz.
7.	<p>Navoiy davlat pedagogika instituti tomonidan ishlab chiqilgan va institut Kengashining 2024- <u>06.09</u> dagi qarori bilan tasdiqlangan</p> <p>Mazkur sillabus O‘zbek tilshunosligi kafedrasining 2024-yil <u>28.08</u> 1-sonli yig‘ilish bayoni bilan ma‘qullangan.</p>

8.	Faa/modul uchun mas'ullar va dastur mualliflari: O'zbek tilshunosligi kafedrası Ra'no Nuriddinova, Filologiya fanlari nomzodi, dotsent
9.	Taqrizchilar: Filologiya fanlari doktori, prof. N. Murodova Filologiya fanlari nomzodi, dotsent B. Zaripov

№ 3. Et. l. l. k